

"O‘zbekiston – 2030" strategiyasining **Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish (1-ilova), Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish (4-ilova)** hamda **"Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish (5-ilova)** yo‘nalishlari bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan **amaliy tadbirlar rejalari** ijrosi bo‘yicha
MA’LUMOT

No	Vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQRARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH YO‘NALISHI		
23-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish		
	1-ilovaning 57-bandi: Nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosib ish o‘rinlari yaratish orqali ular bandligini ta‘minlashni 2 barobarga oshirish. Mas’ul ijrochilar: Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Bajarildi. Mazkur topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida 2024-yilda 16 ming nafar imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha prognoz parametrlari tasdiqlandi. Tasdiqlangan dasturga asosan, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida mehnat organlari tomonidan 21,7 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashildi. Jumladan: – 13,9 ming nafari bo‘sh va zaxiralangan ish o‘rinlariga joylashtirildi; – 5,8 ming nafari kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitildi; – 1,5 ming nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi; – 569 nafarini ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiya ajratish orqali bandligiga ko‘maklashildi. Bugungi kunga kelib, “YAMMT” tizimida doimiy ishlovchi nogironligi bo‘lgan fuqarolar soni 135,5 ming nafarga yetdi. Mazkur ko‘rsatkich 2023-yilda 73,1 ming nafarni tashkil etgan (<i>o‘tgan yilga nisbatan 62,3 mingga yoki 1,9 barobarga oshgan</i>).
2.	1-ilovaning 70-bandi: Xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlarga o‘qitish orqali bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish hamda ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish. Mas’ul ijrochilar: Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi	Bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2024-2025-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta‘minlash Prognoz ko‘rsatkichlari” asosida mas’ul vazirlik va idorlar bilan hamkorlikda, kasbiy malakaga ega bo‘lmagan jami 299 161 nafar (<i>155 313 nafar kasb-hunarga, 143 848 nafar tadbirkorlikka</i>) xotin-qizlar mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishga jalb qilindi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 19 465 nafar, Andijonda 22 594 nafar, Buxoroda 20 795 nafar, Jizzaxda 15 370 nafar, Qashqadaryoda 26 633 nafar, Navoiyda

№	Vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
		12 661 nafar, Namanganda 21 126 nafar, Samarqandda 26 251 nafar, Surxondaryoda 25 786 nafar, Sirdaryoda 11 191 nafar, Toshkent viloyatida 26 547 nafar, Fargʻonada 28 393 nafar, Xorazmda 29 219 nafar hamda Toshkent shahrida 13 130 nafar.
27-maqсад: Mamlakatda kambagʻallik darajasini qisqartirish		
3.	1-ilovaning 75-bandi: Kambagʻal oilalar muammolarini hal etish orqali mamlakatda kambagʻallik darajasini kamaytirish. <u>Masʻul ijrochilar:</u> Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Bajarildi. “Individual dastur” modulida ijtimoiy himoyaga va iqtisodiy qoʻllab-quvvatlashga muhtoj 729 mingta oilalarga kambagʻallikdan chiqarish boʻyicha manzilli individual dastur ishlab chiqilgan boʻlib, joriy yilning oʻtgan davri mobaynida ularga quyidagi ijtimoiy yurdamlar koʻrsatildi, jumladan: 976,9 ming nafar fuqarolar ishga joylashtirildi; 125,9 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka oʻqitildi; 227,4 ming nafariga imtiyozli kredit ajratildi; 31,8 ming nafariga subsidiya ajratildi; 44,7 ming nafariga oliy taʼlim oʻquv-kontrakt toʻlovlari qoplab berildi (“<i>Ayollar daftari</i>”dan 362 ta va “<i>Yoshlar daftari</i>” jamgʻarmalaridan 44 369 ta); 14,2 ming nafariga dehqonchilikni tashkil etish uchun ijara yer maydonlari ajratib berildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida Respublikada kambagʻallik darajasi 8,9 foizga tushirildi.
4.	1-ilovaning 76-bandi: Mamlakatimizda hududlar kesimida kambagʻal aholining balansini shakllantirish. <u>Masʻul ijrochilar:</u> Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi	Bajarildi. Xitoy tajribasi asosida “Online-mahalla” platformasida hududlar kesimida kambagʻal aholining balansini shakllantirilib, ularga koʻrsatilayotgan yordamlarni online monitoring qilish va manzilli ishlash imkoniyatini beradigan “Individual dastur” moduli ishga tushirildi (<i>Raqamli texnologiyalar vazirligining 31.05.2024-yildagi Ex-23-8/3617-sonli ekspert xulosasi</i>).
28-maqсад: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sugʻurta tizimini takomillashtirish		
5.	1-ilovaning 77-bandi: Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ishsiz aholini ishga joylashtirishga koʻmaklashish. <u>Masʻul ijrochilar:</u> Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, Yoshlar ishlari agentligi,	Bajarildi. Mazkur band ijrosini taʼminlash maqsadida 2024-yilning oʻtgan davri mobaynida tuman (<i>shahar</i>) Bandlik boʻlimlari hamda hokim yordamchilari bilan hamkorlikda 424,7 ming nafar ishsiz fuqarolar korxona va tashkilotlardagi boʻsh (<i>vakant</i>) va zaxiralangan (<i>kvota</i>) ish oʻrinlariga ishga joylashtirildi.

№	Vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	
6.	1-ilovaning 78-bandi: Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilishni yo‘lga qo‘yish. <u>Mas’ul ijrochilar:</u> Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Statistika agentligi, Soliq qo‘mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi	Bajarildi. Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilib borish maqsadida vazirlikning “yangiish.mehnat.uz” elektron platformasi Soliq qo‘mitasi, “YAMMT” va tegishli vazirlik idoralarning axborot tizimlariga integratsiya qilindi. Platformada tashkil etiladigan ish o‘rinlari hisobini loyihalar kesimida onlayn kuzatib borish, yaratilgan ish o‘rinlarini soliq organlari orqali haqqoniyligini monitoring qilib borish imkoniyati yaratildi.
7.	1-ilovaning 79-bandi: Samarqand viloyati Samarqand tumani misolida ishsiz aholini aniqlashning yangi mexanizmini ishlab chiqish. <u>Mas’ul ijrochilar:</u> Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Statistika agentligi, Soliq qo‘mitasi	Bajarildi (79.1-band). Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan Statistika agentligi va Soliq qo‘mitasi bilan birgalikda mutasaddi vazirliklar, idoralar va ilmiy-tadqiqot institutlarining ekspertlarini jalb qilgan holda “Ishsiz va ishga joylashtirishga muhtoj aholining va norasmiy bandlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish uslubiyoti” ishlab chiqildi. Mazkur uslubiyotga muvofiq, joriy yilning may-iyun oylarida tajriba tariqasida ishga joylashtirishga muhtoj aholining va norasmiy bandlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish ishlarini Samarqand tumanida amalga oshirish bo‘yicha vazifalar belgilandi. Shuningdek, Samarqand tumanida amalga oshirilidigan ishlar natijalariga ko‘ra mazkur tajribani respublikaning boshqa hududlarida ham joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Bajarildi (79.2-band). Samarqand tumanidagi 74 ta mahallada hokim yordamchilari tomonidan bandlik holati noma’lum bo‘lgan 46,2 ming nafar fuqarolar xatlovdan o‘tkazildi. Xatlovdan o‘tkazilgan fuqarolarning 9 831 nafarining bandligi ta’minlanmagan bo‘lib, shundan ishsizlar (<i>ishlashga tayyor, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar</i>) – 784 nafar, ishlash istagi yo‘qlar (<i>uy bekasi. o‘z xohishiga ko‘ra ishlamaydi</i>) – 7 168 nafar, ishlashga imkoni yo‘qlar (<i>bola parvarishi bilan band, mehnatga layoqatsiz (kasalligi tufayli), doimiy parvarishga muhtoj oila a‘zolariga qaraydi</i>) – 1 869 nafarni tashkil etadi. 20 235 nafar fuqaro norasmiy sektorda band ekanligi aniqlandi. Shundan, tomorqada bandlar – 4 951 nafar, qurilish sohasida norasmiy bandlar – 4 188 nafar, fermer (<i>dehqon</i>) xo‘jaligida norasmiy ishlovchilar – 1 698 nafar, jismoniy shaxslar qo‘lida yollanib ishlaydiganlar – 989 nafar, tadbirkorlik subyektlarida yollangan holda norasmiy ishlovchilar – 919 nafar, taksi (<i>kirakashlik</i>) va yuk tashish (<i>logistika</i>) xizmatlarini ko‘rsatadiganlar – 896 nafar, ro‘yxatga olinmagan tadbirkor sifatida faoliyat ko‘rsatadiganlar – 309 nafar, bir martalik ishlarda band (<i>mardikor</i>)lar – 265 nafar, boshqa yo‘nalishlarda norasmiy bandlar 6 020 nafarni tashkil etadi.

№	Vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
		Shuningdek, xatlov natijasida rasmiy sektorda band fuqarolar – 2 755 kishi, xorijga ishlash uchun ketgan fuqarolar – 6 882 kishi, talaba va o‘quvchilar – 718 kishi, pensiya yoki keksalik nafaqasidagilar – 196 kishi, nogironligi bor shaxslar – 41 kishi, muddatli harbiy xizmatga ketganlar – 10 kishi, sud qaroriga ko‘ra jazoni o‘tash muassasasidagilar – 18 kishi ekanligi aniqlandi. Bajarildi (79.3-band). Ishsiz aholining manzilli ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha Samarqand tumani tajribasini respublikaning boshqa hududlarida joriy etish, bunda ushbu jarayonni vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari balansini shakllantirish hamda aholi bandligi va ishsizlik hisobini yuritish metodologiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga (ID- 95159) kiritilgan “Ishsiz va ishga joylashtirishga muhtoj aholining va norasmiy bandlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish tartibi” asosida amalga oshirish rejalashtirilgan. Loyihada har chorak yakuni bilan hokim yordamchilari tomonidan xatlov o‘tkazilib, ishsizlar va norasmiy bandlarning noma-nom manzilli ro‘yxatini shakllantirish nazarda tutilgan. Qaror loyihasi Adliya vazirligining 2024-yil 19-apreldagi 8/2-0346-son huquqiy ekspertiza xulosasi asosida, vazirlikning 2024-yil 26-apreldagi 01/00-01/10-3924-son aloqa xati bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.
29-maqсад: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish		
8.	1-ilovaning 80-bandi: Band bo‘lmagan shaxslar, kambag‘al oilalarning ishsiz a‘zolari va yoshlarni amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish. <u>Mas’ul ijrochilar:</u> Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlari agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Bajarildi. Vazirlik tasarrufidagi kasbiy ko‘nikmalar markazlari tomonidan 221 093 nafar (<i>ayollar 126 700 nafar, yoshlar 92 122 nafar</i>) “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni, shu jumladan, zarur kasbiy malakaga ega bo‘lmagan ishsizlarni mehnat bozorining ehtiyojidan kelib chiqib 75 ta kasb yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishga jalb qilindi. Shu bilan birga, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufidagi kasbiy ko‘nikmalar markazlarining jami 166 nafar kasb-hunar ta‘limi o‘qituvchilarining malakasi oshirildi. Xususan, “Worldskills Uzbekistan” ishehi kasblar assotsiatsiyasi va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi bilan hamkorlikda 2024-yilning 13-18-iyun kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Janubiy Koreyalik 12 nafar “Worldskills xalqaro ekspert”lari ishtirokida 6 ta (<i>payvandlash, santexnika, elektromontaj, sartaroshlik, tikuvchilik va oshpazlik</i>) kasblari bo‘yicha vazirlik tasarrufidagi kasb-hunarga o‘qitish markazlarning 88 nafar kasbiy ta‘lim o‘qituvchilari hamda 2024-yilning 12-14-noyabr kunlari Buxoro va

№	Vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
		Samarqand shaharlarida 6 ta (CNC tokar, CNC frezer, AutoCAD mutaxassisi, zargarlik, novvoychilik (oshpazlik), suvoqchi va gipsokartonga ishlov berish) kasblari bo'yicha 38 nafar kasbiy ta'lim o'qituvchilari malaka oshirdilar. Joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida jami 71 809 nafar fuqarolarni nodavlat ta'lim muassasalari hamda ustoz-shogird maktablariga kasb-hunarga o'qitish maqsadida yuborildi (58 067 nafar nodavlat ta'lim muassasalari, 13 742 nafar ustoz-shogird maktablari). Shundan, kasb-hunarga o'qitish maqsadida jalb etilganlarning 32,5 %ni xususiy sektor va "usta-shogird" maktablari ulushi tashkil etadi. Mazkur o'qitish ishlarini tashkillashtirish maqsadida Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari xisobidan ishsiz fuqarolarni stipendiya va o'qitish xarajatlarini qoplab berish uchun 289,1 mlrd.so'm mablag'lar sarflandi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining **Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish (6-ilova)** hamda **Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish (9-ilova)** yo'nalishlari bo'yicha 2024-yilda ishlab chiqiladigan **normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari** ijrosi bo'yicha

MA'LUMOT

№	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	Amalga oshirilgan ishlar
I. HAR BIR INSONGA O'Z SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQUARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH YO'NALISHI		
28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish		
1.	6-ilovaning 13-bandi: "O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi. <u>Mas'ul ijrochilar:</u> Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Adliya vazirligi, Soliq qo'mitasi	Bajarildi. Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini (ID-95763) ishlab chiqildi. Mazkur qonun loyihasi belgilangan tartibda vazirlik va idoralar bilan kelishildi, Adliya vazirligidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Qonun loyihasi 2024-yil 16-maydagi 01/00-01/15-4630-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. Qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ma'qullanib Oliy Majlis Senatiga ko'rib chiqish uchun kiritilgan.

№	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	Amalga oshirilgan ishlar
2.	6-ilovaning 14-bandi: Aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. <u>Mas'ul ijrochilar:</u> Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi	Bajarildi. Ushbu band ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi (ID-28507) ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-oktabrdagi "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 706-son qarori tasdiqlandi.